

O'QUVCHILAR MA'NAVIYATINI OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Elomonova Surayyo To'lginovna

Termiz davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy fanlarni o'qitish metodikasi

(ma'naviyat asoslari) yo'nalishi 1-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18386244>

Annotatsiya: Maqolada o'quvchilar ma'naviyatini ommaviy axborot vositalari orqali shakllantirish masalalari tahlil qilinadi. OAVning ijobiy va salbiy ta'sirlari, pedagogik shart-sharoitlari va usullari ko'rib chiqiladi. Natijalar tizimli foydalanish ma'naviy rivojga yordam berishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Ommaviy axborot vositalari, media savodxonlik, ma'naviy tarbiya, pedagogik yondashuvlar, tanqidiy fikrlash, axborot ta'siri, ijtimoiy qadriyatlar, axloqiy rivojlanish, pedagogik samaradorlik.

Annotation: The article examines the development of students' spirituality through mass media. Both positive and negative media effects, pedagogical conditions, and methods are discussed. Results indicate that systematic use contributes to moral development.

Key words: Mass media, media literacy, moral education, pedagogical approaches, critical thinking, information impact, social values, ethical development, pedagogical effectiveness.

Аннотация: В статье рассматривается формирование духовности учащихся через средства массовой информации. Обсуждаются положительное и отрицательное влияние СМИ, педагогические условия и методы. Результаты показывают, что систематическое использование способствует нравственному развитию.

Ключевые слова: Средства массовой информации, медиаграмотность, нравственное воспитание, педагогические подходы, критическое мышление, влияние информации, социальные ценности, нравственное развитие, педагогическая эффективность

Bugungi globallashuv sharoitida jamiyat taraqqiyoti inson kapitalining sifati, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy yetukligi bilan bevosita bog'liqdir. Ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar nafaqat bilim berish, balki shaxsning ma'naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirishni ham ustuvor vazifa sifatida belgilab bermoqda. Shu nuqtayi nazardan, o'quvchilar ma'naviyatini takomillashtirish masalasi zamonaviy pedagogikaning dolzarb ilmiy muammolaridan biri hisoblanadi. Axborotlashgan jamiyat sharoitida ommaviy axborot vositalari o'quvchilar hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Televideniye, radio, matbuot, internet nashrlari, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa raqamli platformalar orqali tarqalayotgan axborot oqimi o'quvchilarning dunyoqarashi, axloqiy qarashlari, ijtimoiy xulq-atvori va qadriyatlar tizimiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli OAVni faqat axborot manbai sifatida emas, balki kuchli tarbiyaviy-pedagogik vosita sifatida ilmiy asosda o'rganish zarurati yuzaga kelmoqda.

Ma'naviyat shaxsning ichki dunyosi, axloqiy qarashlari, qadriyatlari va ijtimoiy mas'uliyatini mujassam etuvchi murakkab ijtimoiy-pedagogik hodisadir. Pedagogik nuqtayi nazardan, o'quvchilar ma'naviyati ularning bilim olish jarayonida shakllanadigan axloqiy fazilatlar, ijtimoiy munosabatlarga tayyorligi hamda jamiyat hayotida faol ishtirok etish qobiliyati bilan belgilanadi.

Ma'naviyat tushunchasiga Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov shunday ta'rif berganlar: "Ma'naviyat – insonni ruhan poklanishga, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, inson ichki dunyosini, irodasini baquvvat iymone'tiqodini butun qiladigan, vijdoni uyg'otadigan kuch. Insonning barcha qarashlarining mezonidir". Inson ma'naviyatining mohiyati bir-biri bilan uzviy bog'langan ma'naviy-axloqiy, ilmiy-amaliy, mafkuraviy fazilatlarining yaxlit tizimi ekanligini unutmashimiz darkor. Ma'naviy madaniy tarbiyatarbiya haqida so'z yuritganimizda, axloq tushunchasiga e'tibor qaratishimiz lo'zim. "Ma'naviyat – insonning ma'lum darajadagi jismoniy, aqliy va ruhiy balog'ati va dunyoqarashini ifodalovchi tushunchadir".¹

Zamonaviy ta'lim konsepsiyalarida o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish g'oyasi yetakchi o'rinni egallaydi. Bunda faqat akademik bilimlar emas, balki ma'naviy yetuklik, ijtimoiy faollik, vatanparvarlik, tolerantlik kabi sifatlar muhim hisoblanadi. O'quvchilar ma'naviyatini shakllantirish jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun zarur bo'lgan ongli, mas'uliyatli va mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi. Ijtimoiy jarayonlar tezlashgan, axborot oqimi kuchaygan hozirgi davrda o'quvchilarning ma'naviy immunitetini shakllantirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Chunki ma'naviy yetuklik o'quvchining turli axborotlar ichidan foydalisini ajrata bilish, salbiy ta'sirlarga qarshi turish va o'z pozitsiyasini asosli ravishda himoya qilish qobiliyatini belgilaydi. Shu jihatdan, ma'naviy tarbiya ijtimoiy xavfsizlik omillaridan biri sifatida ham namoyon bo'ladi.

Pedagogik tajribalar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning ma'naviy rivoji uzluksiz, tizimli va maqsadga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya jarayonida samarali amalga oshadi. Bu jarayonda o'qituvchi, oila va ijtimoiy muhitning o'zaro hamkorligi muhim hisoblanadi. Ayniqsa, ommaviy axborot vositalari orqali shakllanayotgan ijtimoiy muhit o'quvchi shaxsining ma'naviy qiyofasiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli o'quvchilar ma'naviyatini shakllantirish masalasiga ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida yondashish, uni zamonaviy axborot makoni bilan uzviy bog'liq holda tadqiq etish zarur. Bu esa OAVning tarbiyaviy imkoniyatlarini ilmiy asosda o'rganish va ta'lim jarayoniga maqsadli tatbiq etishni talab etadi.

Ommaviy axborot vositalari orqali juda tez fursatda tarqalayotgan ijtimoiy- siyosiy, mafkuraviy axborotlarning ko'p foizi dunyoning turli davlatlarida tashvish uyg'otmoqda. Jahonga egalik qilishga intilayotgan kuchlar aynan axborotdan qurol sifatida foydalanishga urinmoqda. Boshqacha aytganda, bir tomondan axborot insoniyat ma'naviy olamini kengaytirish, inson ilmu-tafakkurini boyitishga xizmat qiladigan manba sifatida ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi zamonda juda ko'p davlatlar o'z madaniyati, an'analari va ma'naviy qadriyatlarini yot axborot ta'siridan himoya qilish uchun tegishli choralar ko'rishga majbur bo'lmoqda. Shu sababli sodir bo'layotgan voqea-hodisalar oqimida kirib kelayotgan axborotning mazmunini anglash, uni to'g'ri talqin qilib, xulosalar chiqarish nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi².

Ommaviy axborotni davriy tarqatishning doimiy nomga ega bo'lgan hamda bosma tarzda (gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, byulletenlar va boshqalar) va (yoki) elektron tarzda (tele-, radio-, video-, kinoxronikal dasturlar, Internet jahon axborot tarmog'idagi veb-saytlar)

¹ Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" T: 2008

² Begimqulov U.SH. Mamarajabov M. FLASH MX dasturi va undan ta'limda foydalanish imkoniyatlari. –T.: TDPU, 2006. – 80 b

olti oyda kamida bir marta nashr etiladigan yoki efirga beriladigan (bundan buyon matnda chiqariladigan deb yuritiladi), qonunchilikda belgilangan tartibda ro'yxatga olingan shakli hamda ommaviy axborotni davriy tarqatishning boshqa shakllari ommaviy axborot vositasidir.

3

Ommaviy axborot vositalari zamonaviy jamiyatda ijtimoiy ongni shakllantiruvchi muhim institutlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ular nafaqat axborot tarqatish, balki shaxsning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi va xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatish funksiyasini ham bajaradi. Shu bois pedagogik fanlarda OAVning tarbiyaviy imkoniyatlarini o'rganish alohida ilmiy yo'nalish sifatida shakllanib bormoqda. Nazariy jihatdan ommaviy axborot vositalarining ta'siri ijtimoiylashtirish nazariyasi bilan uzviy bog'liqdir. Ushbu nazariyaga ko'ra, shaxs jamiyatdagi ijtimoiy me'yorlar, qadriyatlar va xatti-harakatlarni turli ijtimoiy institutlar orqali o'zlashtiradi. Agar ilgari bu jarayonda oila va maktab yetakchi rol o'ynagan bo'lsa, hozirgi axborotlashgan davrda OAV ijtimoiylashtiruvchi kuch sifatida tobora kuchayib bormoqda. Ayniqsa, o'quvchilar yoshida OAV orqali olinayotgan axborotlar ularning ma'naviy qarashlariga chuqur singib boradi. Pedagogik nuqtayi nazardan, OAVning ta'siri ikki tomonlama xarakterga ega. Bir tomondan, ma'naviy-axloqiy mazmunga ega, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib qiluvchi materiallar o'quvchilarning ma'naviy rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday kontent o'quvchilarda vatanparvarlik, ijtimoiy mas'uliyat, insonparvarlik va fuqarolik ongini shakllantirishga xizmat qiladi. Ikkinchi tomondan esa, zo'ravonlik, iste'molchilik, axloqiy me'yorlarga zid g'oyalarni targ'ib etuvchi axborotlar o'quvchilarning ma'naviy qiyofasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

“2022 — 2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.05.2022 yildagi PF-134-sonli Farmonida, Xalq ta'limi vazirligiga multimedia ilovalarini ishlab chiqish talabi qo'yilgan, unga ko'ra maxsus elektron tizimlar (S-testing, Onlinedu, Raqamli darsliklar va boshqalar) orqali multimedialar berib borilishi aytib o'tilgan. 2022-yil yakuniga qadar yangi avlod darsliklari uchun 10 ta mobil elektron resurs va 100 ta multimedia mahsulotlarini yaratish ko'zda tutilgan⁴. Media pedagogika nazariyasi OAVni ta'lim-tarbiya jarayoniga ongli va maqsadli ravishda tatbiq etish zarurligini asoslab beradi. Ushbu yondashuvga ko'ra, o'quvchi OAV ta'sirining passiv iste'molchisi emas, balki faol va tanqidiy tahlil qila oluvchi subyekti bo'lishi lozim. Shu sababli o'quvchilarda media savodxonlikni shakllantirish ma'naviy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Psixologik-pedagogik tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, o'quvchilar axborotni ko'pincha emotsional jihatdan qabul qiladi. Tasviriy, audiovizual materiallar ularning ongida kuchli taassurot qoldiradi va uzoq muddatli xotirada saqlanib qoladi. Shu bois OAV orqali uzatilayotgan har bir axborot birligi o'quvchining axloqiy pozitsiyasi va xulq-atvoriga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Bu holat OAVdan tarbiyaviy vosita sifatida foydalanishda pedagogik mas'uliyatni yanada oshiradi. Zamonaviy ilmiy yondashuvlar OAVning ta'sirini faqat salbiy yoki ijobiy deb bir tomonlama baholashni inkor etadi. Aksincha,

³ O'zbekiston Respublikasining 15.01.2007 O'RQ-78 sonli “Ommaviy axborot vositalari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida Qarori

⁴ 2022 — 2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.05.2022- yildagi PF-134-son farmoni va uning 1-ilovasi — // lex.uz

OAVning ta'siri uning mazmuni, maqsadi va undan foydalanish madaniyatiga bog'liq ekanligi asoslanadi. Agar OAV ta'lim jarayoni bilan integratsiyalashgan holda, ilmiy-pedagogik asosda qo'llansa, u o'quvchilar ma'naviyatini rivojlantirishning samarali vositasiga aylanishi mumkin.

Zamonaviy OAV makonidagi asosiy tahdidlardan biri — axborotning haddan tashqari ko'pligi va uning sifati ustidan nazoratning sustligidir. O'quvchilar yoshiga mos kelmaydigan, zo'ravonlik, axloqiy buzilish, individualizm va iste'molchilikni targ'ib qiluvchi kontent ma'naviy qadriyatlarning yemirilishiga olib kelishi mumkin. Bunday axborotlar o'quvchilarning axloqiy me'yorlarga bo'lgan munosabatini o'zgartirib, real hayot va virtual makon o'rtasidagi chegarani yo'qotish xavfini kuchaytiradi.

Internet va ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan yolg'on axborotlar, manipulyativ materiallar va g'oyaviy bosimlar ham o'quvchilar ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillar sirasiga kiradi. O'quvchilar tanqidiy fikrlash ko'nikmalariga yetarlicha ega bo'lmagan taqdirda, bunday axborotlarni haqiqat sifatida qabul qilishi va o'z dunyoqarashini shu asosda shakllantirishi mumkin. Natijada, milliy qadriyatlar, ijtimoiy mas'uliyat va axloqiy mezonlarga nisbatan befarqlik yuzaga keladi. Shu bilan birga, zamonaviy OAV makoni o'quvchilar ma'naviyatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarni ham taqdim etadi. Ta'limiy, madaniy va ma'rifiy mazmunga ega bo'lgan teleko'rsatuvlar, hujjatli filmlar, elektron nashrlar va ijtimoiy loyihalar o'quvchilarda tarixiy xotira, milliy o'zlikni anglash va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, milliy OAV orqali targ'ib etilayotgan ma'naviy-ma'rifiy dasturlar o'quvchilarni ijtimoiy faollikka undash, ularning fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash imkonini beradi. Bunday kontent o'quvchilarni jamiyat hayotida sodir bo'layotgan jarayonlarga befarq bo'lmaslikka, mas'uliyatli qarorlar qabul qilishga va ijtimoiy qadriyatlarni anglashga yo'naltiradi. Pedagogik jihatdan muhim jihat shundaki, OAV makonidagi tahdid va imkoniyatlar o'rtasidagi muvozanat o'quvchilarning axborot madaniyati darajasi bilan belgilanadi. Agar o'quvchilar axborotni tanlash, tahlil qilish va baholash ko'nikmalariga ega bo'lsa, OAV ularga salbiy ta'sir ko'rsatishdan ko'ra, ma'naviy rivoj manbaiga aylanadi. Shu sababli ta'lim jarayonida media savodxonlikni ma'naviy tarbiya bilan uzviy bog'liq holda shakllantirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

O'quvchilar ma'naviyatini ommaviy axborot vositalari asosida takomillashtirish tasodifiy yoki spontanik jarayon emas, balki aniq pedagogik shart-sharoitlar asosida tashkil etiladigan maqsadli faoliyatdir. Birinchi muhim pedagogik shart-sharoit — OAV kontentini maqsadli va ongli tanlashdir. O'quvchilarga taqdim etilayotgan axborot ularning yosh xususiyatlari, psixologik rivojlanish darajasi va ijtimoiy ehtiyojlariga mos bo'lishi lozim. Ma'naviy-axloqiy mazmunga ega, milliy qadriyatlarni aks ettiruvchi, shaxs kamolotiga xizmat qiladigan materiallar tarbiyaviy jarayonning asosiy manbai sifatida tanlanishi zarur. Bu jarayonda o'qituvchining pedagogik didi va kasbiy mas'uliyati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ikkinchi shart-sharoit — o'quvchilarda axborotni tahlil qilish va baholash ko'nikmalarini shakllantirishdir. OAV orqali olinayotgan axborotlarni tanqidiy ko'z bilan ko'ra olish, ularning mazmuni va maqsadini anglash ma'naviy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Agar o'quvchi axborotni passiv qabul qiluvchi emas, balki faol tahlil qiluvchi subyektga aylansa, u salbiy ta'sirlarga nisbatan ma'naviy immunitet hosil qiladi. Shu bois ta'lim jarayonida media savodxonlik ma'naviy tarbiya bilan uzviy integratsiyada olib borilishi zarur. Uchinchi pedagogik shart-sharoit — OAVdan foydalanishda o'qituvchi va ota-onalar hamkorligini yo'lga

qo'yishdir. O'quvchi axborot muhitida faqat maktabda emas, balki oilada va keng ijtimoiy makonda ham faoliyat olib boradi. Agar maktabda berilayotgan ma'naviy yo'nalish oiladagi tarbiya bilan uyg'unlashmasa, pedagogik ta'sir samaradorligi pasayadi. Shu sababli ota-onalarning OAVdan foydalanish madaniyatini oshirish, ularni pedagogik jarayonga jalb etish muhim shart hisoblanadi. To'rtinchi shart-sharoit — OAVni ta'lim jarayoniga integratsiyalashgan holda qo'llashdir. OAVdan faqat darsdan tashqari tarbiyaviy vosita sifatida emas, balki o'quv mashg'ulotlarining tarkibiy qismi sifatida foydalanish o'quvchilarning ma'naviy rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu integratsiya o'quvchilarda bilim va ma'naviy qarashlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni shakllantirishga xizmat qiladi. Beshinchi muhim pedagogik shart-sharoit — tarbiyaviy faoliyatning uzluksizligi va tizimlilikidir. O'quvchilar ma'naviyatini OAV asosida rivojlantirish bir martalik tadbirlar bilan cheklanmasligi, balki rejalashtirilgan, bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan jarayon bo'lishi lozim. Bu jarayonda maqsad, mazmun, metod va natijalar o'zaro uyg'unlikda tashkil etilgandagina kutilgan pedagogik samara yuzaga chiqadi.

Ta'lim jarayonida ommaviy axborot vositalaridan foydalanish o'quvchilar ma'naviyatini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi. OAV asosida tashkil etilgan ma'naviy tarbiya jarayoni o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, maqsadli va tizimli amalga oshirilishi lozim.

Amaliyotda samarali metodlardan biri — media materiallarni tahlil qilishga asoslangan mashg'ulotlardir. Bunda o'quvchilar teleko'rsatuv, maqola, video yoki ijtimoiy rolklar mazmunini muhokama qilish orqali axloqiy xulosalar chiqaradi. Ushbu metod o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, axborotni baholash va o'z nuqtayi nazarini asoslash ko'nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, OAV materiallari asosida tashkil etiladigan munozara va suhbatlar o'quvchilarning ma'naviy faolligini oshiradi. Bunday shakllar o'quvchilarni jamiyatda muhim bo'lgan axloqiy muammolar ustida mushohada yuritishga undaydi hamda ularning ijtimoiy pozitsiyasini mustahkamlaydi.

Loyiha va ijodiy topshiriqlar ham OAV asosida ma'naviy tarbiyani amalga oshirishda muhim o'rin tutadi. O'quvchilarning ma'naviy mavzuda video, maqola yoki taqdimot tayyorlashi ularning mas'uliyatini oshirib, ma'naviy qadriyatlarni ongli ravishda o'zlashtirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, ommaviy axborot vositalari zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilar ma'naviyatini shakllantirishda muhim pedagogik vosita ekanligi ilmiy jihatdan tasdiqlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, OAVdan maqsadli va tizimli foydalanish o'quvchilarning axloqiy qarashlarini, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmatini, ijtimoiy faolligini sezilarli darajada oshiradi. Media materiallar orqali olib borilgan tahlil va muhokamalar, shuningdek loyiha va ijodiy mashg'ulotlar o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, axborotni baholash va shaxsiy pozitsiyasini shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, OAVning salbiy ta'sirini kamaytirish va ijobiy pedagogik imkoniyatlarini maksimal darajada ishlatish o'quvchilarning media savodxonligi, o'qituvchi va ota-onaning pedagogik ishtiroki hamda mazmunni yosh xususiyatiga moslashtirish bilan bog'liq. Umuman olganda, ommaviy axborot vositalari zamonaviy axborot makonida o'quvchi shaxsining ma'naviy kamolotini ta'minlashda samarali vosita sifatida namoyon bo'ladi va uning pedagogik salohiyati tizimli ravishda qo'llanilganda yuqori natijalar beradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasining 15.01.2007 O'RQ-78 sonli "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida Qarori.
2. 2022 — 2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.05.2022- yildagi PF-134-son farmoni va uning 1-ilovasi – // lex.uz.
3. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" T: 2008.
4. Media va axborot savodxonligini shakllantirishning pedagogik jihatlari. O'quv-amaliy qo'llanma. - T.: Extremum-press, 2017.
5. Ochiliev A. Globallashuv va mafkuraviy jarayonlar. - T.: «Muxarrir», 2009.
6. Duronov M., Taylakova SH.N. Ommaviy axborot vositalari asosida xorijiy tillarni urgatish. // "Yoshlarga chet tillarni urgatishning zamonaviy texnologiyalari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. - Toshkent: 2013. - B.40-42.
7. Taylakova SH.N., Imomkulova G.N. Mediata'lim va zamonaviy pedagog // Murabbiy mahorati. Jurnal. - Toshkent: 2016. № 1. - B.32-34.
8. Vaxobjon, I. (2022). BARKAMOL AVLODNI MAFKURAVIY TAHDIDLARDAN HIMOYALASHNING MUHIM JIHATLARI. Research Focus, 1(4), 328-332.
9. Ibragimov, V. (2022). METHODOLOGY OF STUDYING FOREIGN LANGUAGE LESSONS BY THE METHOD OF EXTRACURRICULAR PROJECT WORK ADVANTAGES. Oriental Journal of Social Sciences, 2(06), 60-65.
10. Ибрагимов, В. (2022). ИЖТИМОЙ ФАОЛЛИК ВА ТОЛЕРАНТЛИКНИ ЮКСАЛТИРИШНИНГ МУҲИМ ЖИҲАТЛАРИ. Research Focus, 1(4), 351-354.